



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faoliyoti oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 %ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida 9 102,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 59,1 %i yoki 5 375,9 mlrd. so'mni jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 3 726,8 mlrd. so'mni moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos 0,6 % punktga kamayib, 14,1 %ni yoki 1 285,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 816,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 85,9 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



Markazlashgan investitsiyalar

1 285,8
mlrd. so'm

9 102,7

mlrd. so'm
o'sish sur'ati
103,1 %



Markazlashmagan investitsiyalar

7 816,9
mlrd. so'm

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar

3 666,1
mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar


147,1
mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya

1 574,9
mlrd. so'm


Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, o'sish sur'ati %da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, o'sish sur'ati %da



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2 493,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,4 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,5 %i yoki 1 232,9 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 574,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamayib, 17,3 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



878,0

Respublika budgeti



201,5

Suv ta'minoti va
kanalizatsiya tizimlarini
rivojlantirish jamg'armasi



59,3

Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi



147,1

O'zR kafolati ostida xorijiy
kreditlar



2493,9

Korxona mablag'i



571,2

Tijorat banklari kreditlari va
boshqa qarz mablag'lari



1574,9

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy
investitsiyalar



1944,0

Boshqa xorijiy investitsiya
va kafolatlanmagan
kreditlar



1232,9

Aholi mablag'lari



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 571,2 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,3 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 147,1 mlrd. so'm (1,6 % va 5,1 % punktiga kamaydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 1944,0 mlrd. so'm (17,3 % va 4,4 % punktga ko'paydi), Respublika budjeti 878,7 mlrd. so'm (9,6 % va 2,5 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 201,5 mlrd. so'm (2,2 % va 1,3 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,7 %ga o'sdi. Bunday yuqori o'sishga Marg'ilon shahrida joylashgan "TEXYGEN TEXTILE" MCHJ - noto'qima mato ishlab chiqarishni tashkil etish hamda Quvasoy shahrida joylashgan "TSEMENT TEXNO SERVIS" MCHJ tomonidan keromogranit plita ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan ivesititsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,9 %ni tashkil etib, "**Bnbm Building Materials Sentral Asia**" MChJ xorijiy korxonasi tomonidan gipsokarton va metall profillar ishlab chiqarishni tashkil etish va **Baraka International Trade Group**" MCHJ qo'shma korxonasi tomonidan hunarmandchilik va turizm markazi tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Farg'ona viloyati:	9102,7	9,6	27,4	13,5	40,3	2,2	6,3	0,7
shaharlar:								
Farg'ona sh.	1953,2	9,8	34,3	12,7	28,1	2,9	9,2	3,0
Qo'qon sh.	921,9	13,0	32,9	6,5	43,1	0,4	4,1	-
Quvasoy sh.	531,7	2,2	31,6	5,6	52,7	0,9	7,0	-
Marg'ilon sh.	589,5	9,7	18,3	14,8	45,6	0,7	10,9	-
Tumanlar:								
Oltiariq	288,8	8,7	14,7	21,2	30,9	1,4	23,1	-
Qo'shstepta	257,3	8,4	12,2	21,6	53,9	2,7	1,2	-
Bag'dod	325,2	11,8	18,6	11,4	49,4	1,4	7,4	-
Buvayda	145,1	13,7	21,0	33,8	22,5	3,5	5,5	-
Beshariq	504,9	5,6	1,9	10,8	80,2	1,1	0,4	-
Quva	323,1	20,0	20,0	23,2	28,4	1,8	6,6	-
Uchko'prik	539,1	7,9	44,7	9,1	34,9	0,6	2,8	-
Rishton	233,6	5,5	16,3	13,1	47,4	8,8	8,9	-
So'x	185,8	54,0	15,5	5,8	3,2	18,2	3,3	-
Toshloq	383,1	5,0	6,6	18,8	58,3	2,2	9,1	-
O'zbekiston	475,9	5,6	17,4	17,6	53,1	2,1	4,2	-
Farg'ona t	679,6	4,6	59,0	2,5	30,6	0,9	2,4	-
Dang'ara	344,8	4,4	45,3	19,1	26,9	1,5	2,8	-
Furqat	300,7	6,7	6,3	34,3	48,9	2,8	1,0	-
Yozyovon	119,4	26,5	10,7	35,6	19,8	3,5	3,9	-

*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



o'sish sur'ati

85,4 %

Buvayda
tumani

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

145,1

Farg'ona viloyatidagi ulushi

1,6 %



*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

504,9

o'sish sur'ati

69,7 %

Beshariq tumani

Quva tumani

o'sish sur'ati

137,4 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

323,1

Farg'ona viloyatidagi ulushi

3,5 %



*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

539,1

o'sish sur'ati

167,9 %

Uchko'prik
tumani

Rishton tumani

o'sish sur'ati

102,3 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

233,6

Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,6 %



*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

185,8

o'sish sur'ati

115,8 %

So'x tumani



Toshloq
tumani

o'sish sur'ati


108,5 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

383,1

Farg'ona viloyatidagi ulushi

4,2 %



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



o'sish sur'ati

57,6 %

O'zbekiston
tumani

Farg'ona
tumani

o'sish sur'ati

111,9 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



679,6

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



344,8

o'sish sur'ati

120,3 %

Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish sur'ati

103,4 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



300,7

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm




119,4

o'sish sur'ati

89,9 %

Yozyovon
tumani

2021- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 167,9 %ga o'sib, Uchko'prik tumanida kuzatildi. Bu asosan HONGHUA RUBBER MChJ QK va "GRAND ART CLASS" MChJ: velo va moto shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish va Sun'iy teri ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq.

Shuningdek, Qo'qon shahrida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 155,6 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Baraka International Trade Group" MChJ XK tomonidan hunarmandchilik va turizm markazi tashkil etish va "QO'QON METALL" MChJ -meva va sabzavotlarni chugur qayta ishlashni tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Farg'ona shahri (21,5 %), Qo'qon shahri (10,1 %), hamda Farg'ona tumani (7,5 %) ushbu tuman va shaharlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, (%)da



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4 410,3 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 48,5 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 4 135,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 45,4 %) va boshqa xarajatlarga 556,8 mlrd. so'm (6,1 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich So'x tumanida kuzatildi – 82,8 % yoki 153,8 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quyi daraja Uchko'priy tumanida kuzatilib, 26,7 %ni yoki 143,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, So'x tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 11,5 % yoki 21,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)

Yangi qurilish - 61,0

Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 20,6

Boshqa yo'nalishlar -18,4

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 549,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 61,0 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 877,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 20,6 %ini tashkil etdi. Qolgan 18,4 %, ya'ni 1 676,4 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga vo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Jami hajmdagi ulushi % da				
		Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
	Farg'ona viloyati	45,4	48,5	6,1
	shaharlar:			
	Farg'ona	51,7	44,7	3,7
	Qo'qon	58,2	38,2	3,6
	Quvasoy	24,3	71,1	4,6
	Marg'ilon	35,4	63,3	1,4

	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	38,7	50,4	10,9
	Qo'shtepa	47,6	45,5	6,8
	Bag'dod	36,9	53,6	9,5
	Buvayda	60,3	30,0	9,7
	Beshariq	27,2	67,5	5,2
	Quva	53,5	40,4	6,1
	Uchko'prik	26,7	70,9	2,5
	Rishton	74,7	15,1	10,2
	So'x	82,8	11,5	5,8
	Toshloq	38,5	55,5	6,0
	O'zbekiston	33,4	47,8	18,8
	Farg'ona	49,3	46,4	4,2
	Dang'ara	46,8	37,8	15,4
	Furqat	49,3	43,2	7,5
	Yozyovon	64,1	23,1	12,9

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan

3 916,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 43,0 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 1 244,2 mlrd. so'm (13,7 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 1 207,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 13,3 %).
- Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlar ishlab chiqarish – 399,5 mlrd. so'm (4,4 %).

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi jami 763,2 mlrd.so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 8,4 %i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 8,3 %i yoki 759,4 mlrd. so'mi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasiga tegishlidir.



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha tarkibida katta ulushga ega sohalar**

(jamiga nisbatan %da)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida 3 666,0 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 40,3 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 780,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 1 885,6 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so'm

	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
Farg'ona viloyati	3666,0	1574,9	147,1	1944,0
Farg'ona sh.	549,7	292,4	126,3	131,0
Qo'qon sh.	396,9	218,2		178,7
Quvasoy sh.	280,3	25,0	11,6	243,7
Marg'ilon sh.	269,1	0,4	1,0	267,7
Oltiariq t.	89,3	16,7	0,2	72,4
Qo'shtepa t.	138,8	3,6	7,9	127,3
Bag'dod t.	160,7	47,8		112,9
Buvayda t.	32,6	17,4		15,2
Beshariq t.	405,2	397,3		7,9
Quva t.	91,8	20,0		71,8
Uchko'prik t.	188,0	32,2		155,8
Rishton t.	110,7	11,5		99,2
So'x t.	6,0	0		6,0
Toshloq t.	223,5	14,4		209,1
O'zbekiston t.	252,6	198,2		54,4
Farg'ona t.	207,8	139,9		67,9
Dang'ara t.	92,6	1,1		91,5
Furqat t.	146,9	128,3		18,6
Yozyovon t.	23,6	10,4		13,2



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1 574,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 147,1 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,0 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



**Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi
% da**



Joriy davrda jami umumiy maydoni 817,4 ming kv.m bo'lgan 3979 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 517,6 ming kv.m bo'lgan 2539 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Viloyat bo'yicha 54,3 km suv tarmog'i ishga tushirilgan bo'lib, ulardan 54,3 km suv tarmog'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Suv tarmog'i qurilishi bo'yicha 2,9 mlrd. so'm, investitsiyalar o'zlashtirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**
249-87-26